IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

YOSHLARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY JIHATLARI

Turg‘unova Ziyoda G‘ayrat qizi
Toshkent davlat transport universiteti 2-kurs talabasi
Nazarova Nilufar Jo‘rayevna
Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi, ilmiy rahbar

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarning qonuniy asoslarini takomillashtirish, oiladagi mojarolar profilaktikasida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi tahlil etiladi. Er-xotin orasidagi nizoni bartaraf etish bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

Noto‘liq oila, psixologik fenomen, oilaviy munosabat, er-xotin, oiladagi mojaro, tarbiya profilaktikasi oiladagi jinoyatchilik hamda zo‘ravonlik, reproduktiv xulq-atvor.

Jahondagi qator yetakchi davlatlarda noto‘liq oilalarda tug‘ilayotgan va tarbiyalanayotgan farzandlarning ulushi har yili o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Rossiyada[5] noto‘liq oila farzandlari, mavjud oilalar farzandlarining 30 foiz, AQShda 33 foiz, Islandiyada 64 foiz, Shvetsiyada 54 foiz, Buyuk Britaniyada 38 foiz, Finlyandiyada 37 foizni tashkil etmoqda[4]. Salomatlikning to‘rtta komponentlari o‘zaro taqqoslanganda noto‘liq oila farzandlarida birinchi navbatda somatik buzilishlar 59,6 foiz, aksincha to‘liq oilalarda 57,3 foiz, psixologik buzilishlar (69,2 foiz, aksincha, 37,9 foiz), jismoniy buzilish (31,2 foiz, aksincha 21,4 foiz) va psixik buzilish (14,6 foiz, aksincha 9,6 foiz)ni tashkil etmoqda. Shuningdek, noto‘liq oilalardagi o‘g‘il bolalarda salomatlikning barcha komponentlari bo‘yicha buzilish to‘liq oilalardagiga nisbatan yuqori ekanligi hamda ularda somatik buzilishdan ham ko‘ra psixologik salomatligidagi buzilishlar ko‘proq uchramoqda[10]. Shu jihatdan to‘liq va noto‘liq oilalarning farzandlarni psixologik va jismoniy kamolotini ta’minlashdagi roli muhim bo‘lib qolaveradi.

Jahonda onalik timsoli psixoanalitik, etologik va bixevioristik jihatdan, ona fenomenining prenatal psixologiyasi, onalikka tayyorlikning psixologik jabhalari, onalik mustaqil psixologik fenomen sifatida, noto‘liq oilaning kelib chiqish sabablari, yolg‘iz onaning psixologik xususiyatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, oilaviy nizolar, to‘liq va noto‘liq oila farzandlarida ijtimoiy rollarning shakllanishi, noto‘liq oilala farzandlarining xulqiy og‘ishlari sabablari, tengdoshlari bilan munosabat xususiyatlari tadqiq qilingan bo‘lsa-da, o‘smir va ilk o‘spirinlarning istiqboli to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlari shakllanishida ona shaxsining ta’siri muammosini ijtimoiy psixologik jabhadan tadqiq etishga ehtiyoj bor.

Mamlakatimizda oilaviy munosabatlarning qonuniy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini muhofaza qilish, onalik va bolalik huquqini ta’minlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklarida oilaviy munosabatlar muammosi bilan shug‘ullanadigan maslahat xizmati tashkil etilgan. Aholining huquqiy bilim va madaniyatini yuksaltirish, oilaviy nizolar va ajralishlar to‘g‘risidagi sud amaliyotini o‘rganish borasida ham faol ish olib borilmoqda.

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

Sotsiolog olim A.Yunusov fikricha: “Oila manfaatlarini himoya qilish oilaviy munosabatlarda jinoyatchilik va zo‘ravonlikka qarshi kurashishni taqozo etadi. Er-xotin o‘rtasidagi mojarolarning oldini olish muayyan shaxsning axloq normalariga zid xulq-atvorini profilaktika qilish muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu o‘rinda voyaga yetmagan qizlar va ularning ota-onasi o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar bilan belgilanuvchi deviant xulq-atvorining oldini olishni nazarda tutmoqdamiz”[20. 12-13] deb ta’kidlaydi.

Oiladagi mojarolar profilaktikasida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olishga jalb etilgan tashkilotlarning xilma-xilligi jihatidan rivojlangan mamlakatlarda boy tajriba to‘plangan. Xususan, xorijiy davlatlarda oilada zo‘ravonlik holatlari bilan to‘qnash kelganda politsiya bunday oilalar bilan ishlashga maxsus kengashlarni, oila sudlarini, mahalliy advokatlarni, yuridik yordam xizmatlarini, maxsus klinikalarni, psixologik agentliklarni, anonim yordam agentliklarini, eridan jabr ko‘rgan ayollar yashashi uchun mo‘ljallangan joylarni, xotin-qizlar markazlarini, kam ta’minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish xizmatlarini, diniy muassasalar va boshqa tashkilotlarni jalb etadi. Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan zo‘ravonlik qilgan hollarda ham shunday ish tutiladi.

Bugungi kunda oila doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda prokuratura organlari ichki ishlar organlari hamda mahallalar bilan hamkorlikdagi faoliyatini quyidagicha tashkil etishlari maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

– oilaviy janjallar oqibatida er-xotin o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish, ularni murosaga keltirish;

– nosog‘lom oilalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish hamda turmush tarzi jamiyatda qaror topgan normalarga zid bo‘lgan shaxslarni aniqlash;

– oilaning buzilishiga olib keladigan sabablarni o‘rganish orqali oilani mustahkamlash, undagi o‘zaro munosabatlar barqarorligini ta’minlash;

– ajralishlarning oldini olish borasida hududda tarbiyaviy-profilaktik ishlarini olib borish;

– oilada milliy qadriyatlar va urf-odatlarga zid, nojo‘ya xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yayotgan shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli tarbiyaviy ta’sir choralarini ko‘rish maqsadida boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan shaxslarni jalb qilish.

Yuqoridagilar bilan birga, oiladagi jinoyatchilik hamda zo‘ravonlik yuzasidan o‘rganilgan holatlar, ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaliyot natijalaridan kelib chiqib [1, 2, 6, 7, 8, 9, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 21], quyidagi takliflarni bildirmoqchimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida oilaviy ajrimlarning oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Albatta, kundalik hayotimizda oilaviy ajrimlarga sabab bo‘layotgan turli omillar mavjud. Masalan, ajrimlarning eng muhim sabablardan biri, bu – ikkala tomon bir-birlarini yaxshi bilmay oila qurishidir. Yoki kelin-kuyovning turmushga tayyor emasligi, mehnat qilishga o‘rganmaganligi, sabr va iroda bilan yengish mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga toqat qilmasligini ham oilaviy ajrimlar asosi sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, ayrim kuyovlarning ichkilikka ruju qo‘yishi, ba’zan giyohvandlik balosiga giriftor bo‘lishi ham guldek oilani parchalab yubormoqda, - deydi Farg‘ona viloyat hokimining o‘rinbosari, viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Sayyora Alimova[3]. Shuning uchun viloyat va tuman, shahar hokimliklari, xotin-qizlar kengashlari tomonidan prokuratura, ichki ishlar, sud, adliya va FHDYO organlari, tibbiyotchilar, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, “Nuroniy” jamg‘armasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ittifoqi,

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikda yoshlar, quda-andalar o‘rtasida yarashtirish, tushuntirish va targ‘ibot ishlari, davra suhbatlari, uchrashuv hamda muloqotlar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda hududlarda notinch va muammoli oilalar ro‘yxati shakllantirilgan. Mas’ullar tomonidan mazkur oilalarning muammolariga birgalikda yechim topilib, ulardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. YA’ni er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov va oilaning boshqa a’zolari o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida har bir taraf bilan alohida suhbatlar olib borilib, muammolarning tub mohiyati aniqlanmoqda. Notinch oilalar murosaga keltirilib, bunday oilalarga mahalladagi namunali oilalar va mahalla faollaridan murabbiylar biriktirilmoqda. Qolaversa, bu toifadagi oilalar a’zolari “Qaynonalar kengashi” jamoatchilik tuzilmasi, hududda istiqomat qilayotgan namunali oilalar, obro‘-e’tiborli, boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan ziyoli, kayvoni onaxonlar, boshqalarga tarbiyaviy ta’sir qila oladigan faollar hamda FHDYO bo‘limlari ishtirokida o‘tkazilayotgan “Ota-onalar universiteti”, “Oilaning huquqi va majburiyati”, “Reproduktiv salomatlikni mustahkamlash asoslari” mavzusidagi targ‘ibot tadbirlari va mashg‘ulotlarga jalb etilmoqda.

Shaxsning oilaviy nizolar to‘g‘risidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tasavvurlar tizimining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. U yoki bu obyekt yoxud hodisa haqida bilimning yo‘qligi tasavvurning ham yo‘qligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma’lumotlar va ular asosida shakllanayotgan bilimlar aniq yoki noaniq, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lib, biror narsa va hodisalar vositasida shakllanadi hamda bu bevosita ta’sir bo‘lgani uchun ham tasavvurlar ana shunga muvofiq tegishli zaylda paydo bo‘ladi. V.M.Karimovaning ilmiy izlanishlari[11] tahlilida “oilaviy ijtimoiy tasavvurlar” kategoriyasi qo‘llangan bo‘lib (1994), mavzu o‘z doirasiga oilaviy nizolar to‘g‘risidagi tasavvurlar muammosini qamrab olgan. Muallifning ta’kidlashicha, oilaviy ijtimoiy tasavvurlar (OIT) – shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs “Oila” tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va obyektlarni tushunadi va o‘z munosabat (ijtimoiy ustanovka)larini shakllantiradi.

X.Kornelius va SH. Feyrlar tomonidan ishlab chiqilgan **nizo xaritasini[12]** tuzishni taklif etish mumkin. Unga ko‘ra, nizoli vaziyatni aniqlash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1) nizoni keltirib chiqqan muammoning umumiy qirralarini ochish, masalan, agar ishlab chiqarishdagi nizo ish xajmining to‘la bajarilmaganligi sababli kelib chiqqan bo‘lsa, avvalo ish taqsimoti diagrammasini tuzish kerak;

2) nizoning asl sababini aniqlash, zero, aynan shu ish odatda eng mushkul ish hisoblanadi;

3) nizoning haqiqiy ishtirokchilarini aniqlash – alohida shaxsmi, guruhmi yoki uyushmami;

4) nizoga sabab bo‘lgan shaxsiy xohish, istaklar, nizokashlarning aynan nimani istayotganligini aniqlash;

5) nizoga qadar nizokashlarning o‘zaro munosabatlari qanday bo‘lganligini bilish;

6) bevosita nizoda ishtirok etmagan, lekin uning ijobiy xal etilishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning nizoga munosabati.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, xususan, yoshlarni sog‘lom munosabatlar, bahs va munozaralarga o‘rgatish jarayonida oila omilini esdan chiqarmaslik lozim. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash orqali, jumladan, ota-ona va bolalar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom munosabatlarning shakllantirilishi, bu boradagi harakatlarning samaradorligini oshiradi. Bunday faoliyatlar pirovardda oilalarning mustahkam bo‘lishi va unda tarbiyalanyotgan bolaning barkamol bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, oilaviy munosabatlarga hurmat tuyg‘usi bilan yondashib kelgan. Shuning uchun xalqimizning turmush tarzi bilan bog‘liq har qanday munosabatning boshlang‘ich bo‘g‘ini oila va oila muhitiga borib taqaladi. O‘zbekistonda oila mustahkamligini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasidagi usutuvor vazifalardan biri sifatida, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” [19], 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli, 2022 yil 1 martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-81-sonli farmonlari doirasida e’tibor qaratilib, bu borada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish, oila ajralishlari bilan bog‘liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berildiki, bu kabi chora-tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri ham oilaviy nizolarni o‘rganish va ularning oqibatlarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ona shaxsining farzandlar kamolotiga ta’siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat’iy nazar barqaror tarbiya muhitini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo‘lgan bo‘lsa, bartaraf etish uchun uning kelib chiqish sababini, asosiy aybdorlarni, subyektiv yoki obyektiv sabablarni aniqlash lozimgini ko‘rsatadi. Bu borada mutaxassislar tomonidan nizolarni bartaraf etishning ko‘plab usullari va yo‘llari borasida ishlab chiqqan tavsiyalari tahlil etildi.

Oilaviy nizolarning asosiy sabablari sifatida oila a’zosining qaysi maqomda bo‘lishidan qat’iy nazar, fe’l-atvori, ma’lumoti, madaniyati, moliyaviy ta’minoti, dunyoqarashi, hayot tarzi mos kelmasligi tadqiqotlar orqali asoslandi. Bu holatlarning oldini olish uchun oilaviy hayotga tayyorlash ishlari ko‘lami, oila mas’uliyatini oshirish zarurligi ta’kidlash imkonini beradi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o‘zgarish va ma’naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a’zosini tarbiyalash hamdir. Shuning uchun oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish bilan oilada yuz berishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish muhim sanaladi. Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va “Oila” ilmiy-amaliy markazi hamkorligida FHDYO bo‘limlari, Nikoh uylari qoshida tashkil etilgan “Oila dorilfununi”, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan “Yosh oila quruvchilar maktabi”ning faoliyati muhim o‘rin tutmoqda. Jamiyatimiz barqarorligini ta’minlashda har bir oilaning mustahkam barpo etilishi katta ahamiyatga ega. Bu boradagi targ‘ibot ishlarini avvalo yangi oila quruvchilar o‘rtasida izchil olib borish ko‘zlangan maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

REFERENCES

1. Abdinazarovich, R. D., Saparbayevna, J. N., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). OILALARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI SOTSIOLOGIK TAHLILI (HARBIY XIZMATCHILARNING OILASI MISOLIDA). World of Science, 6(5), 29-33.

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

2. Abdumannapovna, M. D., & Juraevna, N. N. (2022). The role of social institutions in the development of young people. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 67-70.
3. http://www.adolatgzt.uz/society/huquq/5091
4. https://materinstvo.ru/art/2074
5. https://rg.ru/2012/04/26/semiya-anons.html
6. Gafurovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). Issues of Formation of Information and Internet Culture at Young People. International Journal of Development and Public Policy, 2(6), 27-30.
7. Saparbayevna, J. N., Jo'rayevna, N. N., & Abdinazarovich, R. D. (2023). YOSHLARDA MAS'ULIYAT HISSINI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI. World of Science, 6(5), 25-28.
8. Nosirov, R., Yunusova, N., Nazarova, N., & Shamsiddinova, E. (2023, June). Occupational problems in youth competitiveness. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
9. Abdinazarovich, R. D., Jo'rayevna, N. N., & Saparbayevna, J. N. (2023). MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA IJTIMOIY XIZMATNING SHAKLLANISH GENEZISI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 1005-1009.
10. Гафнер В. В., Петров С. В., Забара Л. И. Опасности социального характера и защита от них http://xn----7sbabeyoc2augbjcmunct7d7goa0d.xn--80afh5aqv.xn--p1ai/chitat-posobie/glava-3-opasnosti-obshchestvennogo-haraktera/problemy-nepolnyh-semey/
11. Каримова В.М. Оила психологияси. Дарслик. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. 180 бет.
12. Карта конфликта (Х.Корнелиус, Ш. Фэйр). https://studme.org/1299101011102/marketing/karta_konflikta_kornelius_feyr_1999
13. Saparbayevna, J. N., & Jo'rayevna, N. N. (2023). YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDA MADANIY MEROSDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH. PEDAGOG, 6(5), 147-151.
14. Abdinazarovich, R. D. (2023). SOME COMMENTS ON THE DEVELOPMENT OF MILITARY SOCIOLOGY IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 646-650.
15. Jo'rayevna, N. N., & Abdumannapovna, M. D. (2023). MUTAXASSISLIK FANLAR MODULINI O 'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOG, 1(5), 605-609.
16. Рахмонов, Д. А. (2017). THE SOCIAL-CULTURAL PECULIARITIES OF SOCIAL WORK (IN THE MODEL OF SERVICING OLDER PEOPLE). Theoretical & Applied Science, (11), 285-288.
17. Назарова, Н. Ж. (2022). YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH PARADIGMALARI: SHARQ VA G 'ARB KONTEKSTIDA. Журнал Социальных Исследований, 5(2).
18. ЮНУСОВА, Н., НАЗАРОВА, Н., & ЖУМАНИЯЗОВА, Н. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). *СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)*

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий",(6), 9-16.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сонли Фармони Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

20. Юнусов А.Б. Ўсмир ёшларда ижтимоий девиантлик ҳолатларининг социологик хусусиятлари. Социология фанл. номз. илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. –Т.: 2004 йил. 12-13-бетлар

21. Ramatov J., Umarova R., Sultanov S., Nazarova N., & Khasanov M. (2022). MORALITY: AS A SOCIAL-SPIRITUAL PHENOMENON. Теория и практика современной науки, (12 (90)), 27-30.

22. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" No. PF-60. January 28, 2022. National database of legislative information, 29.01.2022, No. 06/22/60/0082

WORDLY
KNOWLEDGE